

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

AVGUST, 2025-YIL





O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-259-6

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиақбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ
СВТ..... 7-11

Mamadaliyeva Gulhayo

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI
UNING ISH KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI 12-16

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV..... 17-19

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI
QIYOSIY FARQLAR..... 20-23

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI 24-25

Xasanova Nargiza

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA 26-29

Rustamova Nigora

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI 30-32

Xalilov Baxodir

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) 33-37

Норов Шухрат

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) 38-41

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) 42-43

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH
METODIKASI 44-47

Abduraimova Nigora

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI 48-51

Sidiqov Jasurbek

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR..... 52-56

Nematova Dilnoza

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 57-63

Axmedova O'g'ilshod

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI 64-66

<i>Abduraimova Nigora</i> TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i> MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i> TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i> INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
FALSAFA FANLARI	
<i>Gafurova Munajat</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i> ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI	93-98
FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i> O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i> IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i> CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza</i> ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida).....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i> "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i> "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i> TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIK MIZMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbonova Aziza</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

<i>Qosimova Malika</i> LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI	137-140
<i>Ayimbetova Damekhan</i> ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI	141-145
<i>Yo'ldasheva Mahliyo</i> "MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	146-149
<i>YURIDIK FANLARI</i>	
<i>G'ofurov Ramzbek</i> DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI	150-154
<i>Turdibaeva Mukhaddas</i> JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES.....	155-160
<i>Gafurova Shoir</i> ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI.....	161-165
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RSIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR	166-169
<i>Babajanov Farrux</i> IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH	170-175
<i>PEDAGOGIKA FANLARI</i>	
<i>Hurillaeva Uzulxon</i> ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ.....	176-181
<i>Tursinova Zoxida</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	182-191
<i>Babayeva Shahnoza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI	192-194
<i>Rasulova Barnoxon</i> KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI	195-199
<i>Zokirjonov Akramjon</i> O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.....	200-202
<i>Baratova Yulduz</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI.....	203-206

Sattoriy Shohruh

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI 207-210

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza

AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN..... 211-213

Мамадалиев Хасанхон

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)

И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ..... 214-218

Махмудбеков Бобурмирзо

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA

OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH..... 219-221

PSIXOLOGIYA FANLARI

Усманова Лилия

ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ

ТРАДИЦИИ 222-225

SIYOSIY FANLAR

Sa'diyev Bahodir

ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI..... 226-231

TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIK ZMMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR

Gulmuradova Sobira Rustam qizi

E-mail: gulmurodovasobira@gmail.com

Tel: +998995939295

Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiyshunoslikda etnografizmlarga oid ayrim tadqiqotlar va etnografizm tushunchasi bilan bog'liq masalalar xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Turkiyshunoslik, etnografiya, urf-odat, an'ana, milliylik, qozoq, qoraqalpoq, tojik.

ON THE DIVERSION OF ETHNOGRAPHIC STUDIES IN TURKIC STATES

Gulmuradova Sobira Rustam daughter

Annotation. This article is conducted on the basis of these issues with the concept of some research and the concept of ethnography in Turkish activities.

Key words: Turkic, ethnography, tradition, nationality, kazakh, karakalpak, tajik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-29>

Ming yillar davomida shakllangan urf-odat, marosim, adabiyot, san'at muallaq holda, o'zga xalqlardan bekitiqcha paydo bo'lib rivojlanmagan. Aksincha, biz bilan qadimdan yonmayon, jon qo'shni sifatida hayot kechirib kelayotgan qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik va ozarbayjon xalqlarining bevosita ishtiroki, hamrohligida yaralgan, taraqqiy topgan, hatto jahonning ko'plab boshqa xalqlari vakillarining ham bu qadimiy madaniyatning taraqqiy topishida muayyan hissasi bor. Aslida udumlar, an'analardan ko'zda tutilgan maqsad nima? Udumlarning hayotdagi o'rni, mavqeyi qanday bo'lishi kerak? Biz turli zamonlarda turlicha siyosatdan kelib chiqib muayyan g'oyalarni yaratamiz. Bu g'oyalarni mafkura darajasiga ko'taramiz, qonunlashtiramiz. Udum ham qonun, udum ham mafkura. Nazarimda, bizni ming yillar davomida balo-qazolardan asrab kelgan ham, boshi berk ko'chalarga kirib qolmasligimizni ta'minlagan ham shu udum, an'ana, xalqona donishmandlik namunasi bo'lgan buyuk didaktikadir. Har bir taraqqiy etgan, madaniyatli xalqning o'z tili, urf-odati, adabiyoti, osori-atiqalari, an'anaviy moddiy va ma'naviy boyliklari bo'ladi.

Tilimizda ayni bir so'z umumiy leksik sistemadan ham, sohaviy leksik sistemadan ham joy olib, muayyan paradigmaning a'zosi bo'lishi mumkin. Bunday xususiyatga ega so'zlar tilimizda ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan, "Chaqirdi" so'zi umumiy leksik sistemada "bir subyektini ikkinchi subyekt tomonidan o'ziga da'vat etmoq" ma'nosi bilan "baqirmoq", "da'vat etmoq" singari so'zlar bilan bir paradigmani hosil qilsa, "chaqirdi" shakli barqarorlashgan, yaxlitlashgan holda maxsuslashgan ma'noga ega bo'ladi va to'ydan so'ng qiz tomonning kuyov va kelin hamda ularning yaqinlariga beriladigan ziyofat, ma'rosim ma'nosida qo'llaniladi va "unashtirdi", "yuzochdi" singari so'zlar bilan bir paradigmani hosil qiladi. Bundan tashqari "chaqirdi" so'zi o'zida yuqoridagi ma'nolardan tashqari, ma'lum bir xalq vakillariga xos milliylikni, urf-odat va an'anani, marosimni ifodalaydi. Tilimizda mavjud barcha ana shunday xususiyatga so'zlar "Etnografizmlar" yoki "Etnografik so'zlar" deb ataladi.

Hozirgi zamon dunyo tilshunosligida har bir xalq tilining milliy o'ziga xosligi aks etgan lug'aviy birliklar asosan etnosemantik, antropolingvistik va etnolingvistik yo'nalishlarda tadqiq etilmoqda. Natijada muayyan hududga mansub etnografizmlar o'sha joyda shakllangan moddiy va ma'naviy madaniyatining semiotik, ya'ni ramziy tili ekanligi aniqlandi. Etnosning moddiy va ma'naviy madaniyatini ijtimoiy kontekstda o'rganish asosida etnografik lakunalarni umummilliy (etnik), hududiy va dialektal tiplarga bo'lib tasniflash imkoni yuzaga keldi. Til, etnos va madaniyatning yaxlit tizim ekanligini isbotlagan bunday zamonaviy tadqiqotlarning xulosalari va ilmiy-nazariy konsepsiyalari turkiy tillar etnografik leksikasini, shu jumladan, Qoraqalpog'iston qozoqlari etnografizmlarini tarixiy-retrospektiv va qiyosiy-tipologik usullarda keng ko'lamda tadqiq etishga asos bo'ladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin Respublikada istiqomat qilayotgan barcha xalqlarning tili, moddiy va ma'naviy madaniyati, folklori va urf-odatlarini saqlab qolish, an'anaviy merosni yanada rivojlantirish, qadriyatlarni tadqiq va targ'ib etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Tilshunos olimlar tomonidan ikki va ko'p tilli lug'atlarning yaratilishi, izohli, etimologik va terminologik lug'atlar yuzaga kelganligi, shevalarning leksik, morfologik va fonetik xususiyatlari chuqur o'rganilganligi dialektal leksikaning hududiy xossalarini aniqlash tamoyillarini mukammallashtirdi. Ayniqsa, mamlakatimizda yashovchi qozoq, tojik, turkman va qirg'izlarning tili va folklorini o'rganish xalqlar o'rtasidagi o'zaro do'stlik va yaqin qo'shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, "Biz jahondagi barcha davlatlar, avvalo, yaqin qo'shnilarimiz bo'lgan Turkmaniston, Qozoqiston, Qirg'iziston, Tojikiston va boshqa davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va o'zaro do'stlik aloqalarini har tomonlama mustahkamlashni o'zimizning ustuvor vazifamiz, deb bilamiz". Shu bois, o'zining moddiy va ma'naviy madaniyatida qozoq millatiga xos bo'lgan asosiy belgilarni saqlangani holda uzoq davrlar mobaynida hududiy-areal xususiyatlar kasb etgan Qoraqalpog'iston qozoqlari etnografizmlarini lingvomadaniy aspektda tadqiq etish g'oyat muhimligini ko'rsatadi. Janubiy Orolbo'yi qozoqlarining tarixi, etnografiyasi, etnik guruhi va tilining o'ziga xosliklarini to'plash va tadqiq etish o'tgan asrning 60-yillaridan boshlangan. Bu davrlarda Qozoqiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining ilmiy xodimlari A. Qurishjonov, S. Omarbekov, Q. O'miraliyev, O. Naqisbekov, B. Isqaqov, A. Maxmutov, N. Junisov, B. Beketovlar maxsus ekspeditsiyaga chiqib, Qoraqalpog'istonda yashayotgan qozoqlar tarixi, etnografiyasi, og'zaki adabiyoti va tili bilan bog'liq ko'p materiallar to'pladi.

Mahalliy qozoq, qoraqalpoq xalqlari ola ipga nisbatan ilohiy deb qarab, alohida e'tibor qaratishgan. Odamlarning bir-birini ko'rmas bo'lib arazlashini tasvirlab *ala jipti kesisti* deyiladi, ya'ni ola ipdan foydalanish bola ulg'ayganda birovning ola ipidan sakrab o'tmasin, xiyonat qilmasin degan niyatni ifodalaydi. Ikkinchidan, dunyoning o'zgarib, kun va tunning almashinishini, hayotning oq va qorasi, yaxshilik va yomonlikning almashinib turishini bildirgan. Qozoqlarda chaqaloqning dunyoga kelishi va tarbiyasi bilan bog'liq xalqning bir necha asrlik tajribasi va qadimiy e'tiqodlarga asoslangan turli dastur va urf-odatlari shakllanganligini ko'ramiz. Ularning ko'pchiligi Qoraqalpog'iston qozoqlari tilida mahalliy qoraqalpoq, o'zbek tillari ta'sirida ba'zi o'ziga xosliklari bilan ishlatiladi. Qozoq xalqi hayotida o'g'ilni uylantirishning eng keng tarqalgan dasturlaridan biri bu - *quda tusip, qalin mal berish*. Qozoqlarda *quda tusip* ning quyidagi turlari ham bo'lgan. Masalan, ikki o'rtoqning ayollari bir

paytning o'zida homilador bo'lib qolgan bo'lsa, "agar sening ayoling qiz tug'ib, mening ayolim o'g'il tug'sa, ikkovimiz quda bo'laylik", - hali dunyoga kelmagan bolalarini bir-biriga atab qo'yishadigan bo'lgan. Atab qo'yish O'rta Osiyo xalqlarida uchraydi. Bunday quda tushishni qozoq adabiy tilida *bel quda* deb atashadi. Quda tushishning bunday turi turkman va qirg'iz xalqlarida ham bo'lgan. Buni qirg'izlarda *bel quda*, qoraqalpoqlarda *aqlay quda* deb nomlashadi. *Qalin* leksemasi etnografik termin sifatida ko'pgina turkiy tillarda qo'llanadi. Tatar, qirg'iz va oltoy tillarida "sep yoki qalin puli" va oltoy tilida "ma'lum qimmatli narsaga to'lov, baho, tovarning bahosi", chig'atoy tilida "qalin-nikoh to'yida qudalik uchun yuboriladigan pul" ma'nolarida qo'llanilgan. Qozoq xalqining qadim zamonlardan kelayotgan dasturlaridan biri bu - yangi tushgan kelinchakning yuzini hech kimga ko'rsatmasdan, yupqa mato bilan olib kelish. Kelinchakning yuzini doim o'rab-burkab qo'yish mumkin emas. Shuning uchun uning yuzini ochish kerak bo'lgan. Bu dasturni *betashar* deb atashadi. Betasharni aytgan kishiga sovg'a sifatida pul yoki mato berishadi. Bu sovg'ani mahalliy qozoqlar *aytimal* deb nomlashadi. Kelinning yuzini ochish dasturi o'zbeklarda kelin salom, qoraqalpoq va qozoq xalqlarida *betashar* deb ataladi. Turkiy xalqlarning deyarli barchasida vafot etgan odamga bag'ishlab qayg'uli qo'shiq sifatida "yo'qlov" aytilgan. "Jo'q" so'zi qadimgi turkiy tilda qayg'u ma'nosini bildirib, marhumni dafn qilish bilan bog'liq dastur yoki vafot qilgan odamga beriladigan osh" ma'nosida qo'llanilgan. A. N. Kononov qadimgi turkiy tildagi yo'q so'zining bir ma'nosi "qazo, o'lim" ekanligini qayd etgan. Dafn qilish marosimi, asosan, o'zining qadimiy ko'rinishlarini saqlab qolgan bo'lsa-da, u islom dini tartiblariga amal qilgan holatda o'tkaziladi. Bunday dasturlar juda murakkab bo'lib, uning asosi dastlab animistik tushunchalarga borib taqaladi. Marhumning yettisi, qirqi, yili bilan bog'liq va boshqa ko'pgina urf-odatlarini o'zida jamlagan. Dafn qilish bilan bog'liq Qoraqalpog'iston qozoqlari tilida qo'llaniladigan etnografizmlarning aksariyati din bilan bog'liq bo'lganligi bois arab va fors tillaridan kirib kelganligini kuzatamiz. Qoraqalpog'iston qozoqlari etnografizmlari o'zining milliylikini saqlagan, mahalliy turkiy xalqlar madaniyati ta'siriga uchragan, shuningdek, o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan boy meros bo'lib sanaladi. Etnografizmlarni tahlil etish turkiy xalqlar tarixi, madaniyati va tilining mushtarakligini, turkiy xalqlarning antroposentrik paradigma asosida dunyoni ko'rish, sezish, idrok etishdagi umummilliylikini ham o'zida ifoda etadi. Etnografizmlarning ko'pchiligining adabiy tilda ekvivalenti yo'q. Shuning uchun ularni adabiy tilda qo'llash mumkin. Demak, etnografik leksika adabiy til taraqqiyotida bitmas-tuganmas asosiy manba vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. –Toshkent: Cho'lpon, 2007. 9-10-betlar.
2. Adilova G. A. Qoraqalpog'iston qozoqlari etnografizmlarining lingvomadaniy tahlili: PhD. Dis. Avtoref. –Nukus, 2018. –B. 14-15.
3. Xonxo'jayeva A. S. Tojik tilining to'y va motam marosimlariga oid etnografik leksikasi. PhD. Dis. Avtoref. –Samarqand, 2019. –B. 11.
4. Кононов А. Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников. Наука, 1980. – С. 114.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 05-avgust

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.